

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING XARAKTERINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONA TALABCHANLIGINING ROLI

**Zulfiyeva Sarvinoz Doston qizi, magistr**  
**M.Ulug`bek nomidagi O`zMU universiteti Jizzax filiali**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar psixologik xususiyatlarini shakllantirishida ota-onaning roli, ularning psixologik xususiyatlarini shakllantirishda ijtimoiy muhitning ta'siri haqida so'z yuritilgan. Bola atrofdagilardan ma'naviy ozuqa oladi, ularga taqlid qiladi, xulq-odobni o'zlashtiradi. Ular o'z o'yinlarida ota-ona yoki shifokor bo'lib, kattalar nima qilsa shuni bajarishga harakat qiladilar.

**Kalit so'zlar:** Bola, ma'naviy ozuqa, taqlid, xulq-odob, ota-ona yoki shifokor, kattalar, ta'lim va tarbiya.

Albatta, uzluksiz ta'lim maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Farzandlarimizning yuksak intellektual salohiyatli, yetuk va barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishi maktabgacha ta'lim muassasasida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liq. Ma'lumki, maktabgacha ta'limning samaradorligini tavsiflovchi eng asosiy ko'rsatkich 2 yoshdan 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish hisoblanadi.[2]

Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tili, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak, asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish,

nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki ko'rtaklarini hosil qilish davridir.[1]

Bolaning oilada shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir etuvchi omillarning asosiysi bevosita makromuhit va mikromuhitdir. Avvalo, bu bolaning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, xarakterini shakllantiruvchi jamoa, uning ota-onasi, qarindoshlari, tengdoshlari, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari, maktab pedagoglar jamoasi va boshqalardir.[4]

Maktabga maxsus tayyorlangan bolada dadillik, ishonch, faollik, o'z tengdoshlari orasida o'zini erkin tutish kuzatilsa, maktab ta'limiga tayyorlanmagan bolada esa zo'riqish, uyalish, hadiksirash, o'ziga nisbatan ishonchsizlik kabi bir qator salbiy xislatlar namoyon bo'ladi va bu o'z navbatida, uning ta'lim samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim olish motivatsiyasi, ilk o'quv ko'nikmalari shakllanmagan, psixik jarayonlari rivojlanmagan bola o'zlashtirishda orqada qoladi, o'qishga nisbatan qiziqishi so'nib boradi va yakkalanib qoladi.[3]

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xususiyatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.[6]

Xarakter qandaydir turg'un va o'zgarmas xususiyat emas. Jumladan, bolalik yoshida xarakterning xususiyatlari odatda "jiddiylashish", "boshqacharoq bo'lib qolish" tarzida ko'rinadiki, bu hol ijtimoiy omillardan ya'ni, atrofdagilarga nisbatan munosabatning murakkablashuvi, gormonal yetilish natijasida namoyon bo'la boshlaydi. Shaxs xarakterdagi o'zgarishlarni yetarlicha hisobga olmaslik ziddiyatli va nizoli munosabatlarni vujudga keltiradi. Ayni shu davrda bola xarakterida aktsentuatsiya xususiyatlari, jumladan, emansipatsiya reaksiyasi kattalar qaramog'idan "ozod" bo'lishlik, tengqurlari bilan guruhlashish reaksiyasi, ishtiyoq reaksiya, xobbi reaksiyasi kabilar ustivorlik qiladi.[5]

Aynan bolalar o'rtasida sodir etilayotgan deviant (xulqi og'ishgan) xulq-atvor ko'rinishlari jumladan, jinoyatchilik, giyohvandlik, agressivlik, suitsid kabi turli jamiyatimiz uchun yot bo'lgan illatlar oilada shaxslararo munosabatlarning

to'g'ri tashkil etilmaganligidan kelib chiqmoqda. Bunda, ota-onalar farzandlari tarbiyasiga befarq, loqayd munosabatda bo'lishi, oilada sog'lom turmush tarzini to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, ota-onalarni farzandlarining yoshiga xos bo'lgan psixologiyasini, ularga xos bo'lgan shaxslararo munosabatlar to'g'risidagi bilimlarini yetishmasligi tufayli jamiyatimiz uchun zid bo'lgan xatti-harakatlarning yuzaga kelayotganligi, natijada, ilmiy asoslangan ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini ochib berishligini taqozo etadi. Birinchidan, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar insonning ongiga bevosita ta'sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi. Ikkinchidan, tashqi ijtimoiy muhit ta'sirining chuqurroq va mustahkamroq bo'lishiga odamning o'zi yordam beradi. Ma'lumki, bolalar o'z tabiatlariga ko'ra yoshlik chog'laridan boshlab, nihoyat darajada taqlidchan bo'ladilar. Bolalar katta odamlarning barcha hatti-harakatlariga bevosita taqlid qilish orqali bu hatti-harakatlarni, yaxshi-yomon fazilatlarni o'zlariga singdirib boradilar. Bolalar oilada, ko'cha-ko'yda, katta odamlarning har bir harakatlarini, o'zaro munosabatlarini zimdan kuzatib turadilar.[6]

Odatda, 2-3 yoshli bolalar ota-onalariga taqlid qilishni yaxshi ko'radilar. Bola atrofdagilardan ma'naviy ozuqa oladi, ularga taqlid qiladi, xulq-odobni o'zlashtiradi. Ular o'z o'yinlarida ota-ona yoki shifokor bo'lib, kattalar nima qilsa shuni bajarishga harakat qiladilar. Ular bolalarni ovqatlantirish, kasallarni davolashni o'zlaricha amalga oshiradilar. Bu yaxshi hol, albatta. Lekin oilada ahillik bo'lmasa, qaynota-qaynona va kelin-kuyov mojarosi tez-tez bo'lib turadigan xonadonlarda taqlid butunlay boshqacha tus oladi, salbiy harakatlar kuzatiladi. Bir narsani unutmang, farzand tarbiyani, eng avvalo, o'z ota-onasiga qarab o'rganadi. Ota-onaning o'zi farzandiga ibrat bo'la olmas ekan, uni qanchalik tarbiyalamasin, bari befoyda bo'lishi mumkin.[1]

Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.[2]

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi va u yangiliklarni egallashga nisbatan o'z bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Har bir kichkina odam birinchi navbatda o'zini sevishini his qilishni xohlaydi. Bolaning oilada o'zi kabi to'liq qabul qilinishini tushunishi kerak, lekin hech qanday yaxshilik uchun emas. Ota-onalar o'z farzandlariga ma'lum bir xulq-atvor modelini yuklaganlarida ular qanchalik xafa bo'lishlari haqida o'ylamaydilar. Bolaning asosiy ehtiyoji sevgidir. Ota-onaning vazifasi esa unga o'zini to'liq qabul qilinganligini his qilishiga yordam berishdir.

Maktabgacha yoshdagi psixologiya ajoyib va foydali fandır. U o'z vaqtida ota-onalarni mavjud vaziyatdan to'g'ri yo'l tutishga undashi, qo'llab-quvvatlash va qo'shimcha quvonch uchun sabablar bo'lishi mumkin. Ba'zida kattalar bezovta qiluvchi muammoni mustaqil ravishda hal qilishi qiyin. Maktabgacha yoshdagi psixologiya bolalarning rivojlanishiga, shu jumladan har qanday psixologik qiyinchiliklarga qaratilgan.

Ota-onalar farzandining iqtidorini yoshligidanoq rivojlantirish uchun birinchi bo'lib sezishi va ularni yashirmasligi kerak. Afsuski, ko'pincha quyidagi rasmni kuzatish mumkin: kurtakda haqiqiy tabiiy moyilliklar yo'q qilinadi, imkoniyatlar yopiladi va ota-onalar bularning barchasini ongsiz ravishda qiladilar va bolaning oldiga bir qator cheklovlar qo'yadilar. Bunday holda, bolalar tashabbussiz, passiv va dangasa bo'lib ulg'ayishi ajablanarli emasmi?[7]

Ota-onalarning yordami zarur bilim, ko'nikma va malakalarni berishdir. Avvalgi asosiy faoliyat maktab yoshi - bu o'yin. Uch yoki to'rt yoshida bola rolli o'yinni o'zlashtiradi, ammo hozirgacha taqlid darajasida u o'yinchoqlarni olib,

hayotda yoki multfilmlarda ko'rgan vaziyatlarni takrorlaydi. Agar bu yoshda bu holat sodir bo'lmasa, ota-onaning vazifasi qanday o'ynashni o'rgatishidir.[5]

Demak, hozirgi davrda ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish uchun maktabgacha ta'limga e'tibor qaratish hayotiy zaruratga aylangan ekan, bola shaxsini rivojlantirishning qulay va ta'sirchan usullarini izlab topib qo'llash va ommalashtirish eng muhim masala hisoblanadi. Shuningdek, bolaning maktabgacha ta'lim davridayoq uning shaxs sifatida shakllanishiga bee'tibor bo'lmaslik zarur. Buning uchun ota-onalar, tarbiyachilar, pedagog-o'qituvchilar, barcha katta yoshdagilar millatimiz, davlatimizning tayanchi va ishonchi bo'lgan farzandlarimizning sog'lom, aqlli, baxtli bo'lishlari uchun mas'ul ekanliklarini hamisha yodlarida saqlashlari va shuning uchun o'zlarining qo'llaridan kelgan barcha yaxshi amallarni bajarishlari kerak. Bolalarni o'z vaqtida bolalar bog'chalariga jalb eta olish, ularning har tomonlama rivojlanishlari uchun yetarlicha yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan foydalanish zaruratini hisobga olish, har bir bolaning rivojlanishiga yo'l ochib berish lozim bo'ladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Davletshin M.G., To'uchieva S.M. Umumiy psixologiya. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2002. –55-b.
2. Немов Р.С. Психология: Учебник для вузов. – М.: «Владос», 2000.
3. Осорина М.В. Секретный мир детей в пространстве мира взрослых. – СанктПетербург.: «Питер», 2000.
4. Rasulova Z.A. Farzand tarbiyasiga oid psixologik maslahatlar. – T., 2014. –106-b.
5. Sog'inov N.A., Qodirov U.D. Sog'lom bola shakllanishining ayrim ijtimoiy psixologik jihatlari. (Oila kutubxonasi). – T.: ROIAM, 2014 . –37-b.
6. Qarshiboyeva G.Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
7. Qarshiboyeva, G.ХАЁТНИ СЕВИБ ЯШАНГ!. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-48.

8. Qarshiboyeva, G.OILADA BOLALARNI XALQ OG ‘ZAKI PJODI NA’MUNALARI ASOSIDA TARBIYALASH. Архив Научных Публикаций JSPI.
9. Qarshiboyeva, G.ПСИХОЛОГИК МАСЛАҲАТ. Архив Научных Публикаций JSPI.
10. Karshibayeva, G. Diagnostics and Preventive Measures against the Suicidal Behavior of Teenagers. YOUNG SCIENTIST USA., 117.
14. Каршибаева, Г. А., & Шарофиддинов, А. (2018). Роль пословиц в воспитании детей. Молодой ученый, (49), 275-277.
15. Karshibayeva, G Diagnosi of suicidal behavior in adolescents. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Jornal.// Vol 10 Issue03, March 2021 501-505 p
16. Karshibayeva, G. The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2)
17. Karshibayeva, G. The Problems that Appear in the Internal Psychological Ser Vices in the Mental Mode of Women with Disabilities. International Journal of Discoveries